



## THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ISSUES OF PROVIDING FREEDOM OF INFORMATION IN SOCIETY

**Farhod Lapasovich Usmonov**

Associate Professor

Tashkent State University of Economics

Uzbekistan, Tashkent

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Information war, mass media, digital technology, freedom.

**Received:** 29.09.24

**Accepted:** 01.10.24

**Published:** 03.10.24

**Abstract:** In this article, taking into account that there is no single concept that expresses the categorical-methodological meaning of the concept of freedom of information and related concepts (freedom, freedom of speech, freedom of the press), understanding, defining this phenomenon and the present time A detailed review of existing approaches to connect with social phenomena was given.

## JAMIYATDA AXBOROT ERKINLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY- METODOLOGIK MASALALARI

**Farhod Lapasovich Usmonov**

dotsent v.b.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

O'zbekiston, Toshkent

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Axborot urushi, ommaviy axborot, raqamli texnologiya, erkinlik.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada axborot erkinligi tushunchasi va u bilan bog'liq tushunchalar (erkinlik, so'z erkinligi, matbuot erkinligi)ning kategoriyaviy -metodologik ma'nosini ifoda etadigan yagona tushuncha mavjud emasligini hisobga olgan holda, mazkur fenomenni anglash, ta'riflash va hozirgi zamon ijtimoiy hodisalari bilan bog'lash uchun mavjud yondashuvlarning batafsil sharhi berildi.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СВОБОДЫ ИНФОРМАЦИИ В ОБЩЕСТВЕ

**Фарход Лапасович Усмонов**

доцент и.о.

Ташкентский государственный экономический университет

Узбекистан, Ташкент

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Информационная война, средства массовой информации, цифровые технологии, свобода.

**Аннотация:** В данной статье, учитывая, что не существует единого понятия, выражающего категориально-методологический смысл понятия свободы информации и связанных с ним понятий (свобода, свобода слова, свобода печати), проводится понимание, определение этого явления и настоящее время дан подробный обзор существующих подходов к связи с социальными явлениями.

### KIRISH

Jahonda raqamli texnologiyalarning faol qo'llanilishi natijasida tezkor axborotlar taraqqiyotni tezlashtiruvchi asosiy omilga aylandi. Axborot tizimi fuqarolarning bu boradagi huquqlarini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarining hokimiyat va jamoatchilik o'rtasidagi aloqalarini tobora mustahkamlash, axborot makonini izchil rivojlantirish, ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyatni instituti sifatidagi ahamiyatini kuchaytirishda asosiy omil bo'lmoqda.

Dunyoda axborot olish, qayta ishslash (feyk xabarlardan saralash) madaniyatini shakllantirish, keng jamoatchilikka etkazishda xolislik, haqqoniylit tamoyillarining ta'minlanishi, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, fuqarolarning media savodxonligini yanada oshirish yuzasidan bir qancha mamlakatlar (AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya)da ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Butunjahon matbuot erkinligi qo'mitasi tomonidan 1987 yilda qabul kilingan «Matbuot erkinligi Xartiyasi»da hukumat tomonidan ommaviy axborot vositalarining axborot olish va uni tayyorlash bilan bog'liq masalalarda cheklowlarga yo'l qo'ymaslik, mustaqil nashrlar bilan davlat nashrlarining vakolatlari teng bo'lishi va boshqa me'yorlar belgilab qo'yilgan. Chunki, huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda OAVning o'rni beqiyosdir.

Mamlakatimizda axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlariga rioya etilishi, har kimning axborotni erkin va moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, foydalanishi va saqlashiga keng imkoniyat yaratib berilmoqda. «Oshkoraliq va so'z erkinligi bu – davr talabi, bugun O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning talabi»[1;464]. Zamonaviy axborot texnologiyalari tizimi

imkoniyatlarining oshishi ommaviy axborot vositalari bilan xalq o‘rtasida muloqot o‘rnatishning yangi prinsip va mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

### ASOSIY QISM

Erkinlik muammosi har doim jamiyat uchun dolzarb masala hisoblanadi. Yunon mutafakkirlari nazdida erkinlik mayjud ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning barqarorligini ifodalovchi tamoyil sifatida tushunilgan. Masalan, Aflatun fikricha, erkinlik har bir odamning jamiyatda tutgan o‘rniga muvofiq, o‘z vazifalarini o‘zi istagancha qat’iy ravishda bajarishidan iborat[2;599]. Ya’ni, erkinlik har bir shaxsning jamiyat hayotidagi o‘rnini, o‘ziga xos maqomini belgilab berish prinsipi sifatida jamiyat yaxlitligini ta’minlovchi va uni mustahkamlovchi omil hisoblanadi. Arastu ta’limotida esa erkinlik g‘oyasi tenglikka asoslanadi. Epikurga ko‘ra, erkinlik odamlarning o‘zaro foydali narsalar haqida tuzilgan kelishuvining ifodasıdir. Erkinlikning maqsadi ham odamlarning bir-biriga zarar etkazmasligini ta’minalashdan iboratdir[3;217-218].

Erkinlikning shu paytgacha ma’lum bo‘lgan ko‘plab ta’riflari o‘zgarib bormoqda. Chunki, erkinlik fenomenini, uning mohiyatini aks ettiradigan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina elementlarning murakkab tizimini ifoda etadi. XX asrga kelib A.Kamyu, S. Kerkogor J.P.Sartr, K.Popper, K.Yaspers[4;602] kabi faylasuflar erkin («ochiq») jamiyatda erkinlik, so‘z va axborot erkinligi kabi muammolarni tadqiq etishga salmoqli hissa qo‘sishdi. Ular bu tushunchani ochib berish uchun insonning ichki ruhiy erkinligi, irodasi va og‘ir vaziyatda insonning erkin tanlash masalalarini ko‘tarib chiqishdi. Xususan, faylasuf Syoren Kerkogor inson erkinligini va erkin fikrga ega bo‘lishini axloqiy tanloving natijasi deb biladi. Faqat tanlash holatidagina inson o‘zligini topadi va erkinlikkina haqiqiy shaxsni namoyon qila oladi. Shu ma’noda men mutloqlikni tanladim, deydi olim. Mutloqlik – bu men, ya’ni o‘zligimning abadiy mazmunidir; boshqa hech narsa, hech qachon abadiylikning mutloq predmeti bo‘la olmaydi. Mening «Menim» nima o‘zi? Bu avvalo – erkinlikdir. Tanlash – erkinlikning namoyon bo‘lishi va unga olib boruvchi yo‘l. Erkinlik tanlashning ajralmas asosiy qismidir[5;223]. Erkinlik va erksizlik tabiatini insonga xos bo‘lgan jarayon, - deydi u. Faylasuf K.Yaspers falsafasining asosiy tushunchalari, erkinlik, tarixiylik va insonlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarni tahlil etish bo‘lgan. U har qanday muammoning echimini topishda ilohiyotga murojaat qiladi. Yaspersning fikricha, inson iloh tomonidan erkin bo‘lib dunyoga keladi. Xo‘s, faylasuf nazdida shunday ekan, ammo nega insonlar bir-birlarining erkinligiga tajovuz qiladilar, g‘ayriaxloqiy nazar bilan qarashadi. Uningcha, buning sababi insonlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaat talashuvi, zo‘ravonlikka, boylikka intilib yashash hissi, ularning boshqalarga nisbatan xusumati, ya’ni yakkalikka, yakka hukmronlikka intilish istagi ular qalbida tajovuzning uyg‘onishiga turtki beradi. «Erkinlik – qanday istasa, shunday harakat qilish imkoniyatidir. Erkinlik – xohish-iorda erkinligidir. Xohish

o‘z mohiyatiga ko‘ra, har doim erkin irodadir. Bu insonning o‘z maqsad va manfaatlariga muvofiq harakat qilishi, tanlash imkoniyati. Odamlar o‘z faoliyatida ob’ektiv shartlarni erkin tanlay olmaydi, biroq jamiyatning ruxsat etilgan norma va qadriyatlari, ularga erishish maqsad yoki vositalarini tanlash imkoniyatlarini saqlab qolganda, aniq va nisbiy erkinlikka ega. Jamiyatning tarixiy rivojlanishi shaxs erkinligi doirasining kengayishi bilan kechadi»[6;317]. Ammo, bu erda burch hech qachon erkinlikdan emas, balki faqat etika nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Jamiyatda boshqalar huquq va erkinliklarini hurmat qiladigan odamlar o‘z erkinligini samarali tarzda namoyon etadi. Shu boisdan nemis faylasufi G.V.Gegel «Boshqalar ham erkin bo‘lsa va u erkin deb tan olingen taqdirgina men ham haqiqatan erkin bo‘laman» deb yozgan[7;241]. Ushbu prinsipga ko‘ra, biron-bir insonga zo‘ravonlik ishlatsa, u holda hech qanday erkinlik bo‘lmaydi. Shunday qilib, avvalo, inson o‘z erkinligini amalga oshirganda, boshqalarning erkinligi buzmasligi darkor. Gegelning fikriga ko‘ra, «zamonaviy odam uning dunyosini ham hurmat qilishlarini istaydi»[8;105-106]. Bu insonga tabiat tomonidan berilgan daxlsiz xususiyat bo‘lib, insonning ongi, erki, vijdoni, yuksak ma’naviyatining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olingen holda, aynan shaxs o‘zini o‘zi mustaqil idora qilish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o‘laroq, o‘z taqdirini o‘zi belgilash va mas’uliyatni his etishga qodir insongina ijtimoiy hayotda erkinlik va adolatga erishadi. Aytish joizki, fikr inson uchun yomon yoki zararli oqibatlarga olib kelmaydigan tarzda bildirilgan taqdirdagina erkin bo‘ladi. Fikrni so‘zlar yordamida bildirish mumkin. Negaki, so‘z fikrni boshqalarga ifoda etish vositasidir. So‘z esa asosiy, o‘ziga xos va universal vosita bo‘lgani bois, insoniyat undan erkin va mukammal rivojlanishni ta’minlashi mumkin bo‘lgan madaniy, ma’naviy-ma’rifiy merosdan foydalanish imkoniyatini qo‘lga kiritdi.

Inson o‘z fikrini so‘z, matn orqali ifoda etib, uni jamiyat boyligiga aylantiradi. Inson so‘z erkinligini amalga oshirmsandan turib, boshqalar bilan mukammal darajada muloqot qila olmaydi, natijada o‘z bilim va tajribalarini o‘zgalar bilan almasha olmaydi. Ushbu umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda, so‘z erkinligi falsafa nuqtai nazaridan avvalo, «fikr yuritish erkinligi»ni anglatishi yoki sub’ektning dunyoni his-tuyg‘ular orqali bilish doirasidan chiqish, atrof-olamni o‘zi uchun kashf etish, uning in’ikosini inson ehtiyoji va manfaatlariga muvofiq haqiqiy holatni o‘zlashtirish va o‘zgartirish uchun zarur ko‘rinishda anglash imkoniyati, deya baholash mumkin. So‘z erkinligini ma’naviy jihatdan tushunish insonga so‘zlash qobiliyati Yerdagi oliy mavjudot sifatida tabiat tomonidan in’om etilgani bilan bog‘liqdir. Buni insoniyatni er yuzida yagona oila sifatida birlashtiradigan asosiy tabiiy omil, deyish mumkin. Muayyan ma’naviy prinsiplar, bilish va muloqot qilishga intilish, qadr-qimmat tuyg‘usi va kimningdir kamsitishini istamaslik xususiyatlari bu oilaning har bir a’zosiga xosdir. So‘z axloqiy jihatdan, insonda ma’naviy o‘zlikni anglashni shakllantiradi, uning ezgulik va burch mavjudligi haqida o‘z fikrini ma’qullashini ifoda

etadi. Ushbu talab va qoidalar bilan belgilanadigan so‘z erkinligidan amalda foydalanilganda madaniyatni shakllantirishdek muhim vazifani bajaradi. Bularning barchasi so‘z erkinligi falsafiy mohiyatining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgani bois, ilmiy ishda so‘z erkinligining ayrim xususiyatlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tish o‘rinli bo‘ldi. Ya’ni, so‘z erkinligi tushunchasining falsafiy mohiyati insonning bilim orttirish faoliyatining xususiyatlari e’tiborga olingan holda tadqiq etildi. Ma’lumki, bu faoliyat moddiy va amaliy tajribaga, ya’ni insonning tashqi dunyo bilan bevosita munosabatiga asoslangan. Bu borada so‘z his-tuyg‘uga boy obraz, mavhum fikrlash uchun boshlang‘ich material bo‘lib xizmat qiladi, til esa uning moddiy shakli hisoblanadi. So‘z insonlar o‘zaro muloqotini birlamchi tartibga solish vositasi sifatida boshqa barcha ijtimoiy fenomenlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga ko‘maklashadi. Chunki, so‘z insonning muloqot qilish, boshqalar bilan o‘zaro hamkorlik qilishdek muhim ehtiyojini qondiradi. Bir insonning umumiyligi ijtimoiy jarayonga qaratilgan xatti-harakati, odatda boshqa insonlar manfaatiga daxl qiladi va shu sababli amaliy harakatga aylanadi. Harakatdagi inson muqarrar ravishda boshqalarga ta’sir ko‘rsatganda o‘ziga xos nomutanosiblik yuzaga keladi. Albatta, bunday xatti-harakatlar nafaqat ijobiy balki, bo‘lishi ham mumkin. Ammo, hech qachon o‘z-o‘zidan yo‘qolmaydi, balki javob tariqasida mulohaza qilish yoki harakatni yuzaga keltiradi. Boshqacha aytganda, «So‘z erkinligi inson erkinliklarining kalitidir. Inson o‘z huquq va manfaatlariga talabgor bo‘lishi uchun eng avvalo ularni izhor qilish huquqiga – so‘z erkinligiga ega bo‘lishi lozim. O‘z haq-huquqlaring haqida aytishniki iloji bo‘lmasa, ularga ega bo‘lish, erishish haqida o‘ylamasda ham bo‘ladi. So‘z erkinligi ta’minlaganda tafakkur rivojlanadi».

So‘z erkinligi tushunchasini tahlil qilish uchun ko‘rsatib o‘tilgan yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligini anglash qiyin emas:

1. Bu insonning homo sapiensga (ya’ni, aql-idrokli odamga) mansubligi tufayli tug‘ma va tabiiy qobiliyati.
2. Ushbu qobiliyat o‘ziga xos ikki tomonlama yo‘nalishga ega: insonning ichki, ma’naviy dunyosiga taalluqli bo‘lish barobarida tashqi muhitga ham bog‘liq. Negaki, shaxsni jamiyatga moslashtirish, jamiyat hayoti va shaxs faoliyatining zarur asosi hisoblanadi.

Tajriba, ishonzchli va asosli bilimga ega inson mustaqil fikr yuritgan holda qarorlar qabul qilishi mumkin. Bilim bizning borliq haqidagi tasavvurimizni kengaytirib, boyitadi. Bu o‘z navbatida, fikrlash faoliyati va yangi g‘oyalarning yuzaga kelishini rag‘batlantiradi. Ammo, ikkinchi tomondan, inson tafakkurida shakllangan g‘oya yoki fikr biron-bir shaxsga nisbatan bildirilgan bo‘lsa, insonning ijtimoiy maqsadlari tufayli faqat shaxsga tegishli bo‘lmasdan, balki jamoatchilik mulkiga aylanadi va axborot jarayoniga kiritiladi. Binobarin, gapirish va yozishni

biladigan inson tarbiya topgan muhit, uning madaniyati, u mansub bo‘lgan millatning o‘ziga xos xususiyatlari, yashayotgan davridan kelib chiqqan holda o‘z fikrini bildiradi.

«So‘z erkinligi siyosat, iqtisod, madaniyat singari, o‘z millati, mentaliteti, diniga ega va so‘z erkinligini ifoda etish darjasini ko‘pincha ushbu omillarga bog‘liq bo‘lsa-da, chegarasi yo‘q»[8;42]. Biroq, bevosita ijtimoiy muhitda ro‘y beradigan axborot jarayonlarida nafaqat bilim, balki fikr va qat’iy ishonch ham ishtirok etadi. Garchi, fikr va qat’iy ishonch ayrim hollarda bir-biriga yaqin va o‘xshash bo‘lsa-da, ular o‘rtasida tafovut bor. Yetarli darajada aniq va oqilona tarzda asoslangan narsa ishonchli bo‘ladi. Ishonch asta-sekinlik bilan o‘zlashtiriladi, mantiq, isbot, alohida e’tibor va qaror topgan dunyoqarash bilan muvofiqlikni talab etadi. Fikr esa qat’iy asoslanmasligi mumkin, bunda ba’zida tanqidga, mantiqiy xulosalarga, biron-bir narsa haqidagi bitta fikr yoki sub’ektiv tushunchaga asoslangan mavhum farazlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Shunday bo‘lsa-da, fikr ham ishonch singari inson tomonidan haqiqatni anglash, biron-bir axborotni diqqat bilan qayta ishslash natijasida shakllanadi. Demak, insonda fikr va ishonch paydo bo‘lishi uchun tegishli predmet haqida dastlabki ma’lum bir tasavvur zarur. Bu erda «axborot» kategoriyasiga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. «Bu, o‘z navbatida, uni har qanday yangi talqinda ishlatalishda ma’lum qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, ushbu tushuncha ijtimoiy kommunikatsiyalarning har qanday nazariyasida asosiy tushuncha sanaladi»[9;19]. Biron-bir narsa haqidagi har qanday ma’lumotlar yoki tabiat va jamiyatda ro‘y beradigan voqeliklar va jarayonlar, texnik qurilmalar hamda tirik organizmlar to‘g‘risidagi dalillar, ma’lumotlarni aynan ushbu universal atama bilan qayd etish qabul qilingan.

Fikrimizcha, bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgan masalada axborotning moddiy manbalaridan biri sifatida so‘zning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olingan holda tadqiq qilinishi va hal etilishi mumkin. Zamonaviy falsafada axborotga amaldagi qonunchilikka nisbatan kengroq ta’rif berilgan. Ya’ni, axborot individual va ijtimoiy ongning mazmun-mohiyati tafakkur tushunchasida va his etish obrazlarida real voqelikni aks ettirib, jamiyat, uning barcha tuzilmalari ijtimoiy hayoti hamda faoliyatining aniq maqsadli xususiyatini ifoda etadi[10;231].

Inson axborotni yaratishi, to‘plashi, unga ishlov berishi, saqlashi, izlashi, tarqatishi va undan foydalanishi uchun, unga tabiat tomonidan universal vosita, ya’ni so‘z in’om etilgan. Axborot taqdim etishning barcha mumkin bo‘lgan uslublari orqali (masalan, kompyuter tarmog‘idagi axborotning solishtirib o‘qish uchun og‘zaki shaklda taqdim etilishi, fotosurat yoki rasmning og‘zaki tasvirini tuzish, imo-ishoraning og‘zaki ekvivalentini berishi mumkin va hokazo) og‘zaki til shakliga (yozma yoki og‘zaki matnga) aylanadi. So‘z real voqelikning his etish organlari tomonidan qabul qilinadigan ovozli (og‘zaki nutqda) yoki grafik (yozuvda) ramzi, ya’ni ongimizda atrofdagi borliq o‘rnini bosadigan moddiy ob’ekt hisoblanadi.

Agarda so‘zning xususiyatiga axborot manbai sifatida urg‘u beriladigan bo‘lsa, so‘z erkinligi keng ma’noga ega umumiy tushunchani ifoda etadi. Shuning uchun axborot erkinligi so‘z erkinligi tufayli paydo bo‘lganligiga shubha qilmasa ham bo‘ladi. Ushbu fikrdan, so‘z erkinligi va axborot erkinligi tushunchalari mazmunan bir-biriga yaqinligi haqida xulosaga kelish mumkin.

G‘arb olimlari so‘z erkinligi va axborot erkinligi o‘rtasidagi nisbat to‘g‘risida turli konsepsiyalarni ilgari surishgan. Bugungi kunda so‘z erkinligi va axborot erkinligi o‘rtasidagi nisbat bo‘yicha ikki xil yondashuv mayjud: mazmunlarning o‘xshashligi nazariyasi va farqlash nazariyasi. So‘z erkinligi va axborot erkinligi mazmunining o‘xshashligi nazariyasi tarafdorlari AQSh Oliy sudi definitsiyasiga tayangan holda, mazkur ikki erkinlik o‘rtasida tafovut yo‘qligini qayd etmoqda. Ayrimlar esa axborot erkinligi so‘z va fikr erkinligidan hosil bo‘lgani va uning so‘z erkinligi vazifasini bajarishi qayd etilgan konsepsiyanı asoslashga harakat qilmoqda. Ushbu holatda ommaviy axborot vositalari deganda faqat axborot va fikrlar manbai tushuniladi. So‘z erkinligi va axborot erkinligi o‘rtasidagi nisbatni tahlil qilish jarayonida shu narsa oydinlashadiki, o‘z fikringizni hech qanday moneliksiz bildirish imkoniyatini so‘z erkinligi beradi. Bu fikrlar og‘zaki, yozma ravishda yoki ommaviy axborot vositalari yordamida ifoda etilishi mumkin.

So‘z erkinligi va matbuot erkinligini farqlash konsepsiysi tarafdorlari ushbu erkinlikning ikki turi borligini ta’kidlashadi. So‘z erkinligi shaxsiy erkinlik xususiyatiga ega bo‘lib, shaxsning davlatdagi huquqiy holatiga bog‘liq. Matbuot erkinligi esa jamiyat siyosiy tizimidagi mustaqil institutning erkinligidir. Bizningcha, ushbu konsepsiya tarafdorlari fikrini to‘liq ma‘qullah mumkin. Bunda shaxs mazkur erkinlikning manbai hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, axborot erkinligini so‘z va matbuot erkinligi, so‘z va matbuot erkinligini axborot erkinligi bilan aralashtirib bo‘lmaydi. Negaki, bu erkinliklar alohida ma’noga ega bo‘lib, bir-biriga nisbatan mustaqildir. Lekin, so‘z erkinligi va axborot olish huquqi bir-biridan mustaqil bo‘lsa-da, ular o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik borligi haqidagi fikrga qo‘shilish mumkin[11;14].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasida Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minalash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi.[12;12], deya yozilgan. Ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizning qonunchilik amaliyotida so‘z erkinligining axborot erkinligiga nisbatan yagona tushunchasi hozircha shakllanmagan. Lekin shuni ta’kidlash zarurki, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro me’yoriy hujjatlarda ham so‘z erkinligi mazmun-mohiyati etarlicha ochib berilmagan. Hech bir mamlakatda, hattoki, rivojlangan demokratik mamlakatlarda ham qonunchilik, yuqorida

keltirilgan mazmundagi so‘z erkinligini cheklashga o‘xshagan yoki axborot erkinligi nimaligini tushuntirib beruvchi hujjat qabul qilinmagan. Ko‘pgina mamlakatlar konstitutsiyalarida (masalan, AQSh, Rossiya), Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa qator hujjatlarda so‘z erkinligi haqida moddalar bor. Ammo, axborot erkinligi nima ekani to‘g‘risida ta’rif keltirib o‘tilmagan.

## XULOSA

So‘nggi yuz yillik oralig‘ida ko‘plab tadqiqotchilar biz fikr yuritayotgan mavzuga murojaat qilib, uni o‘zlarining asosiy pozitsiyasi va nuqtai nazarlariga ko‘ra ko‘rib chiqishga urinmoqda. Ular tadqiqotining tahlili shuni ko‘rsatadiki, «so‘z erkinligi» va «axborot erkinligi» tushunchalari bir-biriga tenglashtirilgan, to‘g‘rirog‘i, «so‘z erkinligi» tushunchasi hozirgi davrda «axborot erkinligi» tushunchasiga o‘zgartirilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda taxmin qilish mumkinki, erkin axborot almashish uchun so‘z erkinligini ta’minalashning o‘zi kifoya emas. So‘z erkinligini ta’minalash orqali kommunikatsiya sub’ektlaridan biri – xabar uzatuvchining erkinligini ta’minalay olamiz, xolos. Shu bilan birga, axborotning erkin almashinishi uchun xabarni oluvchining manfaatlarini inobatga olish, axborot erkinligining ichki imkoniyatlari uchun sharoit yaratish zarur. Erkinlikni boshqalar erkinligini buzish mumkin emasligi bilan cheklash zarurligi haqidagi prinsipga asoslangan holda, agarda bu jarayon har ikki tomonning roziligi bilan amalga oshirilgandagina, erkin deya olamiz. Bundan tashqari, so‘z erkinligi faqat o‘z fikrini bildirish imkonini beradi, axborot erkinligi esa o‘z ta’siri orqali jamoatchilik fikrini ham qamrab oladi. Xulosa sifatida aytish lozimki, hozircha axborot erkinligining ilmiy jihatdan ta’riflangan yagona tushunchasi yo‘q. Ushbu tushuncha go‘yoki tushunarlidek ko‘rinsa-da, aslida «so‘z erkinligi» atamasidan ko‘proq foydalaniladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: О‘zbekiston, 2022. - 464 б.
2. Асмус Ф. Послесловие. В кн. «Платон». Сочинения в 3-х томах. – М., 1971. – С. 599-600., Материалист Древной Греции. – М., 1955. – С. 217-218
3. Камю А. Творчество и свобода. – М.: Радуга, 1990. - С. 602; Кьеркегор С. Страх и трепет. – М.: Республика, 1993. - С. 383.; Ясперс К. Истоки истории и ее цель. // Пер. с нем. М.И. Левиной. – М.: Республика, 1994.; Поппер К. Открытое общество и его враги. – М.: Феникс, Международный фонд «Культурная инициатива», 1992. - С. 448.; Сартр Ж.П. Бытие и ничто: опыт феноменологической онтологии. – М.: Республика, 2004. - С. 639.
4. Йўлдошев С., Усмонов М. Янги ва энг янги давр Фарбий Европа фалсафаси. - Тошкент.: Шарқ, 2002. – Б. 223.
5. Энциклопедический словарь. М., Проспект. 2005. – С. 317.

6. Гегель Г. В. Энциклопедия философских наук. Т. 3., М., 1977. – С.241.
7. Нерсесянц В.С. Правовое государство: история и современность // Философия права. – С.105-106.
8. Симонов А.К. Свобода СМИ – условие и гарантия открытости общества // Социальная ответственность журналиста: опыт современного прочтения проблемы. В 2-х ч. Часть 1. Межпрофессиональная экспертиза концепта и контекста. - М., 2003.
9. McQuail D. Mass Communication Theory. London, 1996, - Р.19.
10. Основы современной философии / Ред. Проф. М.Н. Росенко, В.Т. Пуляев, Ю.Н. Солонин. СПб.: Лань, 1997. С. 231
11. Малько А. В. Право гражданина на информацию: необходимость, природа, гарантии реализации // Правоведение. 1995. №3. – С. 14.
12. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. //lex.uz